

PREPARATINI QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQRILISH SHAKLI

Tabiiy o‘simliklar ekstraktidan tarkib topgan, o‘ziga xos hidga ega, jigarrang tusdagi (biroz cho‘kma va xira ko‘rinish bo‘lishi mumkin) suyuq qiyom bo‘lib, himoyalovchi plombali 100 ml hajmdagi asl flakonlarda qadoqlangan: (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – me‘yorlash qoshig‘i – dozator, (3) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

| | |
|--|--------|
| | 100 ml |
| Oddiy arpabodiyon ekstrakti (Foeniculum vulgare Mill.) | 20 mg. |
| Apteka moychechak ekstrakti (Matricaria chamomilla L.) | 20 mg. |
| Qalampirmunchoq ekstrakti (Mentha piperita L.) | 20 mg. |
| Toshcho‘p ekstrakti (Thymus vulgaris L.) | 20 mg. |
| Baland qora andiz ekstrakti (Inula helenium L.) | 20 mg. |
| Qizilpoycha ekstrakti (Hypericum perforatum L.) | 20 mg. |
| Oddiy mingyaproq ekstrakti (Achillea millefolium L.,) | 20 mg. |

Yordamchi moddalar: 100 ml.gacha tozalangan suv, shakar kukuni, 95 % li etil spirit

PREPARATNING TA‘SIRI

Quyidagilar ta‘sir ko‘rsatadi:

- Qalampirmunchoq barglarida mentol yurak, o‘pka va bosh miya qon tomirlarini kengaytiradi;
- Arpabodiyon va toshcho‘p mevalarida efir moyi, flavonoidlar, fitotsidlar mavjud;
- Moychechakdan ichak siqilishi, meteorizm va ich ketishda foydalaniladi hamda terlatuvchi xususiyatga ega;
- Qora andiz – oshqozon ichak yarasi kasalliklari, gastritlar, infeksiyon bo‘lmagan ich ketishlar va sanchiqlarda yordam beradi;
- Qizilpoycha – teri oshlovchi moddalar, efir moyi, β -sitosterin, triterpen saponinlar, flavonoidlar (giperozid, rutin), S va Ye vitaminlar, antraxinonlar, makro va mikro elementlar va boshqa biologik faol moddalardan tarkib topgan bo‘lib, o‘tqiyomi oshqozon-ichak kasalliklarida biriktiruvchi va antiseptik vosita sifatida qo‘llaniladi;
- Mingyaproq mikroblarga va yallig‘lanishga qarshi xususiyatga ega, bu o‘simlik inson organizmi ichki a‘zolariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, hamda u shilliq parda paydo bo‘lishiga ko‘mak beradi, ichaklarni gazlardan xalos etadi.

QO‘LLANILISHI

- Oshqozon Ichak Traktida (OIT) ortiqcha damlanish va gaz to‘planishi, meteorizm alomatlari (oshqozon osti sohasida ichaklar to‘lib ketish, shishib ketish hissi), aerofagiya, dispepsiya;
- Chaqaloqlar va emizikli bolalarda ichak sanchiqlari;
- Operatsiyadan keyin oshiqcha gaz to‘planishi;
- Damlanishni bosuvchi sifatida tenzidlar bilan zaharlanish (ya‘ni, yuvish vositalari tarkibiga kiruvchi sirtqi-faol moddalar)

QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR

Preparatning ba‘zi tarkibiy qismlariga yakka tarzdagi chidamsizlik.

QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Yakka tarzda belgilanadi: Meteorizm va sanchiqlarda:

| Chaqaloq va emizikli bolalar | 1 yoshdan 6 yoshgacha bolalar | 6 yoshdan 14 yoshgacha bolalar | O‘smirlar va kattalar |
|---|-------------------------------|--------------------------------|----------------------------|
| 0,5-1,0 ml.dan 2-3 mahal bolani emizayotgan paytda yoki emizishdan oldin yoki keyin | 1,0 ml.dan kuniga 3-5 mahal | 1,5 ml. dan kuniga 3-5 mahal | 2,5ml.dan kuniga 3-5 mahal |

Yuvish vositalari bilan zaharlanganda zaharlanishning darajasiga ko‘ra, kattalarga – 5,0-10 ml.dan, bolalarga – 1,0-5,0 ml.dan tavsiya qilish mumkin. Preparat ovqatlanishdan oldin yoki keyin qabul qilinadi.

Qabul qilish muddati 14 kun. Takroriy davolanish 7 kundan keyin.

MAXSUS KO‘RSATMA

Preparatni qabul qilishdan oldin, chayqating.

NOJO‘YA TA‘SIRI

Preparatning ba‘zi tarkibiy qismlariga organizm ta‘sirchanligi yuqori bo‘lgan holatlarida, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

PREPARATNING ME‘YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatini me‘yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo‘ladigan noxush holatlar haqida xabar qilinmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O‘ZARO TA‘SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo‘llanilganda nojo‘ya ta‘siri kuzatilmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo‘li yetmaydigan, yorug‘likdan himoyalangan joyda +2°S dan +25°S gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz